



JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA UILLYAM SHEKISPIR TRAGEDIYALARINING TALQINI

Mahmudova Ruhshona Sodiqjon qizi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon adabiyotshunoslida Uilyam Shekspirning tragediyalari qanday talqin etilgani tahlil qilinadi. Asosan, “Gamlet”, “Otello”, “Maqtangon qiroq Lir” kabi mashhur asarlari asosida turli davrlarda adabiyotshunoslardan bildirilgan fikrlar, ularning estetik, falsafiy va psixologik jihatlari yoritiladi. Talqinlar orqali Shekspir asarlarining zamонавиј о‘qilishi va ta’siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Uilyam Shekspir, tragediya, jahon adabiyoti, talqin, estetik tahlil, psixologiya.

Annotation: This article analyzes the interpretation of William Shakespeare’s tragedies in world literary criticism. It focuses on the reception of major works such as Hamlet, Othello, and King Lear, highlighting the aesthetic, philosophical, and psychological dimensions emphasized by scholars across different periods. The study also explores the relevance and impact of Shakespeare’s tragedies in modern literary discourse.

Keywords: William Shakespeare, tragedy, world literature, interpretation, aesthetic analysis, psychology.

Аннотация: В данной статье рассматриваются интерпретации трагедий Уильяма Шекспира в мировой литературоведческой мысли. Основное внимание уделяется таким произведениям, как Гамлет, Отелло, Король Лир, анализируется эстетический, философский и психологический подход к их толкованию в разные исторические периоды. Также обсуждается значение шекспировских трагедий в современном литературоведении.

Ключевые слова: Уильям Шекспир, трагедия, мировая литература, интерпретация, эстетический анализ, психология.



KIRISH

Shekspirona go‘zallik tushunchasining chigal va murakkabligi ham , oliv darajadagi tragizimi ham , eng muhimi , millat va zamon tanlamasligi ham undagi haqqoniyatda.Uilyam Shekspir ijodiga yuqori baho bergan adiblardan hisoblanadi. U Shekspirni nafaqat ingliz adabiyotining, balki butun jahon adabiyotining yirik siyoshi deb bilgan. Shekspir inson qalbidagi eng nozik, eng murakkab tuyg‘ularni tasvirlay olgan dahodir. U shunday deydi: “Shekspir – bu faqatgina ingliz adabiyoti emas, u butun insoniyatga tegishli. Har bir millat uning asarlarida o‘z qalbidagi kechinmalarni topa oladi.” (G‘afurG‘ulom)

Uilyam Shekspir — ingliz va umuman jahon adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlari asrlar davomida turli xalqlar madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan. Shekspir nafaqat o‘z davrining, balki butun insoniyat tarixining murakkab psixologik, axloqiy va falsafiy muammolarini yoritgan buyuk dramaturg sifatida tanilgan. Ayniqsa, uning fojialari — Gamlet, Otello, Makbet, Qirol Lir kabi asarlar — insoniyatning eng dolzarb savollariga javob izlovchi asarlar sifatida dunyoning deyarli barcha madaniyatlarida o‘rganilgan, talqin qilingan va sahnalashtirilgan. Shekspir fojialarining o‘ziga xos jihat shundaki, ular milliy chegaralardan tashqariga chiqib, butun insoniyat uchun umumiyl bo‘lgan mavzularni — sevgi va xiyonat, hokimiyat va yovuzlik, taqdir va iroda, aql va aqldan ozish — keng qamrovda yoritadi. Bu jihat ularning bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolishiga sabab bo‘lgan. Turli davrlarda, turli falsafiy oqimlar va madaniy kontekstlarda bu fojialar yangicha talqin qilinib, ularning chuqur ma’nosini yanada kengayib bordi.

Uilyam Shekspirning fojialari 17-asr oxiri va 18-asr davomida Yevropada astasekin mashhurlikka erisha boshlagan bo‘lsa-da, ular dastlabki davrlarda birdek ijobjiy qabul qilinmagan. Ayniqsa, klassik tragediya qonun-qoidalariga qat’iy amal qiluvchi fransuz va italyan adabiy maktablari Shekspirning dramatik tuzilmasini tartibsiz, "qo‘pol" deb baholaganlar. Ularning nazarida Shekspir Aristotelning uch birlik (vaqt, joy, harakat) prinsiplariga amal qilmagani uchun haqiqiy tragediya yozmagan. Biroq 18-asrda ingliz tanqidchilarini va dramaturglari orasida Shekspirga bo‘lgan hurmat



kuchaydi. Aleksandr Pop va Semuel Jonson singari adabiyotshunoslar Shekspirni inson ruhiyatining mohir kuzatuvchisi sifatida madh etishdi. Aynan shu davrda Shekspir fojialari insoniy tuyg‘ularning chuqur va murakkab tasviri bilan qadrlana boshladi. Bu yondashuv keyinchalik romantizm davrida yanada chuqurlashdi. 19-asrda Shekspir fojialari Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida, xususan, Germaniyada alohida qadrlana boshladi. Nemis faylasufi Gete va dramaturg Shiller Shekspirni dramatik san’atning namunasi deb hisoblab, uning asarlarini sahnalashtirdilar va tahlil qildilar. Ayniqsa “Gamlet” va “Qirol Lir” kabi fojialar ekzistensial va falsafiy qatlamlari bilan olqishlandi. Amerikada esa Shekspir fojialari 18-asr oxiri va 19-asr boshlaridan boshlab teatr sahnalarida muntazam namoyish etila boshladi. Ularning asosiy kuchi — axloqiy tanlovlар, ichki ziddiyatlar va insoniy dramatizm orqali tomoshabinni o‘ylantirishi edi. Shekspir Amerika adabiyotida ham iz qoldirdi — ko‘plab yozuvchilar uning obrazlaridan, syujetlaridan va fikrlaridan ilhomlandilar. Umuman olganda, 17–19-asrlarda Shekspiring fojialari asta-sekin adabiy klassika maqomini oldi. Dastlabki e’tirozlar, shakliy tanqidlar o‘z o‘rnini inson ruhiyatini yoritishdagi chuqur tahlilga bo‘lgan e’tirofga bo‘shatdi. Bu esa keyingi asrlardagi murakkab talqinlarga yo‘l ochdi.

Tanqidiy nazariyotchilar fikrlari

A.C. Bredli (ingliz adabiyotshunosi) Shekspir fojialarini chuqur psixologik tahlil orqali talqin qilgan. U “Shekspir fojialari” (1904) asarida Shekspir qahramonlarini individual xatolari tufayli halokatga uchraydigan buyuk insonlar sifatida ko‘rsatgan. Uningcha, tragediya – bu axloqiy xatolar, ichki inqirozlar va taqdir to‘qnashuvi. U Gamletni passivlik qurboni, Otelloni rashk va ishonuvchanlikdan aziyat chekkan qahramon deb tushuntiradi. Yan Kott (polyak adabiyotshunosi va teatrshunos) esa Shekspirga marksistik va ekzistensial yondashuvlarni birlashtirib qaragan. “Shekspir bizning zamondoshimiz” (1965) nomli mashhur asarida u Shekspir fojialarini zamonaviy tarixiy voqealarga o‘xshatgan. Unga ko‘ra, Shekspiring asarlari — bu doimiy zo‘ravonlik, siyosiy fitna va hokimiyat uchun kurash ifodasıdır. Kott Shekspirni “hayotning fojiali absurd”ni ochib beruvchi dramaturg sifatida baholaydi.



Ko‘plab shoirlar Shekspirning obrazlari va mavzularidan she’riy ilhom olgan. Masalan: T. S. Eliot “Gamlet” haqida “noaniqlik va ichki ziddiyatlar dramasi” deb yozgan va o‘z she’rlarida aynan bu tuyg‘ularni ifoda etgan. Sylvia Plath va Ted Hughes kabi shoirlar Shekspir qahramonlarining ruhiy iztiroblarini o‘z poetikasida chuqur aks ettirishgan. Plath o‘z ichki dunyosidagi fojialarni “Opeliya” obrazi orqali ko‘rsatgan.

Madaniy kontekstda yozilgan asarlar Turli xalqlarning yozuvchilari Shekspir fojialarini o‘z tarixiy va madaniy sharoitlariga moslashtirishgan. Masalan: Hind yozuvchisi Vikram Chandra Shekspirning “Macbeth” asarini zamonaviy Mumbay jinoyat olamida qayta talqin qilgan. Karib havzasidan chiqqan adiblar esa “Otello”dagi irq va begonalik masalalarini mustamlakachilik va diaspora kontekstida qayta yozgan.

Shekspir merosi – abadiy so‘nmas mashala. Uning nuri necha asrlarkim, dunyo xalqlarining ko‘nglini munavvar etib, o‘z tegrasida birlashtirib keladi, insonlarni insonlarga tanitadi, ellarni ellarga yaqinlashtiradi, hech qachon zulmatning ziyodan g‘olib kelmasligiga kitobxonni ham, tomoshabinni ham ishontiradi, yo‘ldan adashganlarga yo‘l ko‘rsatadi, ezilgan, jabr chekkanlarni suyaydi. Kechmish ayyomlar tarixi buni yaqqol tasdiqlab turibdi. Shekspir asarlari bizga mangu manaviy yo‘ldosh bo‘lib qoladi. Va bu mislsiz ijod zamonlar osha barcha nasllar uchun manaviyatning yuksak manzillarni yorituvchi yorqin bir mashala kabi yarqirab, nur sochib yashayveradi. Uning asrlari o‘lmas umuminsoniy tuyg‘ularni qamrab olgan. Asarlarida har bir inson uchun tanish kechinmalar , hislar pafosi his etish , tuyish qiyin emas. Shekspir – jahon adabiyotining yorqin siyoshi. Turli davr, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va xalqlar va adabiyotlarning adabiy-madaniy o‘ziga xosliklariga qarab Shekspir asarlari turlicha talqin qilib kelinmoqda. Sobiq ittifoq hududida, jumladan rus va ukrain adabiyolariga Shekspir XIX asrning o‘rtalarida kirib kela boshlagan. Filologiya fanlari doktori, professor G‘aybulla Salomovning takidlashicha, Shekspir, 1845-1849 yillarda prof. P.Savitskiy “Hamlet”ning birinchi pardasini polyak tilidan ukrain tiliga o‘girgan. 31872-1874 yillarda yozuvchi Y. Fedkovich “Hamlet” va “Makbet” tragediyalarini nemischadan ukrain tiliga tarjima qilgan. 1850-yilda D.Kipiani Shekspirning “Romeo va Julietta” tragedyasining gruzinchcha dastlab tarjimasini qayta ishlar ekan, Benjamin Laroshfukoning fransuzchcha tarjimasidan foydalanganligini qayd



etadi yoki bo‘lmasam “Qirol Lir”ning G’afur Gulom tomonidan rus tilidan olingen tarjimasini aytaylik. Bunday tarjima hodisasini asliyatning tarjima tiliga ikkinchi yoki uchinchi tillardan kirib kelish, deb ham yuritiladi. Chunki, badiiy tarjima faqat lingvistik hodisa bo‘libgina qolmay, u keng manodagi estetik hodisa va badiiylik bilan bog‘liq bo‘lgan kategoriya ham

sanaladi. Shekspir asarlari tarjimalari tahlili borasida fikr yuritganda tarjima jarayonida filologik tahlil intuitsiya bilan yonma yon yurishini, boshqacha aytganda, tarjimada tahlil va tasvir o‘zaro hamkorlik qilishini esdan chiqarmaslik lozim. Bu borada G‘.Salomovning “Til va tarjima” (1966), “Tarjima nazariyasiga kirish” (1978), “Adabiy an‘ana va badiiy tarjima”(1980) monografiyalarida atroflicha fikr yuritilgan

Bir so‘z bilan aytganda, Shekspir asarlarini o‘zbek o‘quvchilariga yetkazishda tarjimonlar mashaqqatli mehnat qildilar. Ularning zahmatli ishlaringa xolis baho berish tarjimashunoslik fanining dolzarb vazifalari sirasiga kiradi.⁵ Nihoyat, o‘zbek kitobxonlariga Shekspir bevosita asliyatdan ham o‘girilib, taqdim etildi. Buni taniqli o‘zbek tarjimoni, O‘zbekston xalq shoiri Jamol Kamol amalga oshirdi. U buyuk ingliz dramaturgining “Hamlet”, “Otello”, “Makbet”, “Antoniy va Kleopatra”, “Afinalik timon” asarlarini ingliz tilidan tarjima qilib nashr ettirdi .⁶ Kitobga O‘zbekston Fan Arbobi, professor G‘.Salomov va professor B.Nazarovlar kirish so‘zi yozishgan. Tarjima nashriga ingliz tilinining bilimdonlari bo‘lgan taniqli tilshunos, tarjimashunos va adabiyotshunoslardan professor A.Abduaizov, D.Nuritdinova, dotsent K.Karomatova, tarjimonlar Q.Mirmuhammedov, N.Komilovlar rasmiy taqrizlar yozishgan. So‘zboshi muallfilari tarjimon Jamol Kamolning asarni asliyatdan o‘girishga qanday qilib kirib kelganligi va bevosita tarjimaning mashaqqatli odimlari borasida jumladan shunday deydilar: “ Biroq, tarjimon oldida o‘tib bo‘lmas, ulkan bir g‘ov bor edi. Axir u Shekspirning lisoni – ingliz tilini bilmaydi-ku! Nima bo‘pti, Hozirgacha qilib kelinganidek, Shekspirni ruscha tarjimalaridan o‘giraveradi. Avvaliga u ham shunday qildi, rus tilidan o‘girdi. Lekin ish bir joyga etkanda shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, Shekspirday buyuk zotni tarjima qilish uchun ingliz tilini bilish mutlaqo shart ekan. Tiyran va zahmatkash shoir Jamol Kamol Shekspir bilan asrlar osha adabiy muloqotda bo‘lish uchun til o‘rganishga kirishib ketdi. Ingliz tili bo‘yicha



muayyan bilim va malakaga ega bo‘lgach, “Hamlet”, “Makbet”, “Antoniy va Kleopatra” asarlari tarjimalarini inglizcha asliga qiyoslab, ularni satrma-satr qiyoslab chiqdi. “Otello”, “Afinalik Timon” fojealarini bevosita inglizchasidan o‘girdi”

Ammo 30-yillarda Shekspirni asliyatda o‘qishdan ancha yiroq edik. Sobiq ittifoq davrida aksariyat G‘arb adabiyoti namunalari rus tili vositasida tarjima qilinardi. Hamma muloqotlar Moskvaning yo‘rig‘i bilan amalga oshirilar edi. Shu bois Shekspir bizga dastlab nasriy tarjima yani rus tili orqali amalga oshirildi. “Hamlet” tragediyasining o‘ttizinchi yillardagi o‘zbekcha nasriy tarjimasini Cho‘lpon tomonidan bajarildi. Bu tarjima sahnada namoyish qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, anchagini mahalliy muhitga moslashtirish kuchli bo‘lgan. Ya’ni bizning mentalitetimizga moslashtirilgan.

Xulosa

Uilyam Shekspirning fojialari asrlar davomida nafaqat teatr va kino san’atiga, balki adabiyot — xususan, roman va she’riyatga ham katta ilhom manbai bo‘lib kelgan. Uning murakkab obrazlari, psixologik chuqurligi va abadiy mavzulari yozuvchilar va shoirlarga o‘z asarlarida bu fojialarni qayta talqin qilish, rivojlantirish yoki yangicha kontekstda ko‘rsatish imkonini bergan. Shekspirning fojialari shu qadar kuchli va qatlamli ekanki, ular har qanday davr, millat va madaniyatda yangi adabiy shakllar va ovozlar orqali qayta tug‘ilishi mumkin. Roman va she’riyatda bu jarayon nafaqat Shekspirning merosini davom ettiradi, balki uni yangilaydi ham.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). Hamkor konferensiyalar, 1(11), 386-388.

2Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. University Research Base, 857-860.

3Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(42), 144-149.



- 4Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. Наука и технология в современном мире, 4(5), 36-38.
- 5O'G'Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). World of Philology, 2(2), 46-50.
- 6Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
- 7Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
- 8Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.
- 9Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 438-442.
- 10Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024,
- 11Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari,28,1,230-233,2024,
- 12Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.
- 13Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.
- 14Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. University Research Base, 992-995.